

“TURKIY XALOLAR FOLKLORINING OIYOSIY O’RGANILISHI MASALALARI” mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

USLUB – POETIKANING YETAKCYI UNSURI

Abdurahmon Eshonqulovich PIRIMQULOV,
filologiya fanlari doktori

Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti Olmaliq filiali
Olmaliq, O‘zbekiston

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15292211>

Annotatsiya: Maqolada N.Narziy va R.Ochil kabi hozirgi zamon o‘zbek shoirlari ijodidagi uslubiy nuqsonlar ilmiy jihatdan tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: qofiya, radif, uslub, poetika, so‘z san’ati, ritorika, sun’iy takror.

Annotatsiya: V state nauchno analiziruyutsya stilisticheskie nedostatki v tvorchestve sovremennykh uzbekskix poetov, takix kak Normurod Narziy i Rustam Achil.

Klyuchevye slova: rifma, rifmovka, stil, poetika, iskusstvo slova, ritorika, iskusstvennyy povtor.

Annotation: The article scientifically analyzes the stylistic flaws in the work of contemporary Uzbek poets such as N. Narziy and R. Ochil.

Keywords: rhyme, redif, style, poetics, word art, rhetoric, artificial repetition.

Uslub arabcha so‘zdan olingan bo‘lib, o‘zbek tilida “tartib, tizim” degan ma‘nolarni bildiradi. Akademik Salohiddin Mamajonov yozganidek “uslubni badiiy asar tuzilishining barcha elementlari – asarning g‘oyaviy yo‘nalishi – tematikasi, obrazlar sistemasi, syujet va kompozitsiyasi, tili, tasviriy vositalari, janri va metodi bilan ijodkorning o‘ziga xos shaxsiyatining dialektik birligi belgilaydi. Ijodkorning dunyoqarashi, ruhiy olami, estetik ideali uning har bir yaratayotgan obrazi, har bir tasviriy vositasida namoyon bo‘ladi. Shuning uchun, aytaylik, o‘xshatishmi, metaforami, epitet bo‘ladimi – bularga faqatgina ijodkor uslubining muhim elementlari sifatida, individual belgi alomatlari tarzidagina qarash lozim” [Mamajonov S. 1:207].

Uslub – badiiy matnning sarlavhasidan tortib, to so‘nggi nuqtasigacha bo‘lgan poetik jarayonni to‘laligicha qamrab oladi. Ya‘ni, biz muayyan asarning, deylik, she‘rning mavzusi, g‘oyasi, obrazlar tizimi, tasvir usullari yoki til xususiyatlarini analiz qiladigan bo‘lsak, demak, uslubning ma‘lum bir elementlari haqida fikr yuritgan bo‘lamiz. Shu jihatdan uslubga doir bir necha qarashlar yuzaga kelgan bo‘lsa-da, uning barcha sifatlarini butun murakkabliklari bilan qamrab oladigan mukammal ta‘rifning o‘zi yo‘q. Bizningcha, uslub shoirning butun mahoratini, shaxsiy talant va iqtidorini bo‘y-basti bilan namoyon etuvchi, ko‘rsatuvchi ko‘zgu. Ya‘ni uslub badiiy matnning, binobarin, muallifning so‘z san’ati dunyosida tutgan

“TURKIY XALOLAR FOLKLORINING OIYOSIY O'RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

o'rini, mavqini, uni o'zga shoir yoki yozuvchidan farqini ko'rsatuvchi muhim belgi sanaladi. Biroq uning umumiy va xususiy jihatlari ham mavjudki, individual uslub haqida so'zlaganda, uning umumiy jihat bilan bog'liqlikda o'rganish masalaning tub mohiyatini ochishga yordam beradi.

Uslub – shunday nozik, murakkab ijodiy jarayonki, u mullifning shaxsiy iqtidori, layoqatini namoyish etish bilan birga, ayni paytda ojizligini, mahorat bobida pishib yetilmaganini, gohida esa juda sayoz, sust, o'zi bilmagan holda badiiy adabiyotning estetik qoidalariga izchil amal qilmaganini ham yaqqol namoyon etadi. Shunday shoirlar bo'ladiki, ular qisqa muddatda, aytish mumkin dastlabki mashqlaridayoq o'zligini, o'ziga xos bo'lgan ijodiy uslubini namoyish etib ulguradi. Yana shunday toifadagi qalamkashlar ham borki, ular badiiy ijod dunyosida bir necha yil mashaqqat chekib ijod qilsalar ham shogirdlik pog'onasidan deyarli ko'tarilmaydilar. Nazarimizda, she'rning tug'ilishi bilan to'qilishi o'rtasidagi farq shu joyda yuzaga balqib chiqadi. Ya'ni, haqiqiy ilhom bilan yozilgan she'r tabiiy gulga, zo'rma zo'raki yozilgan she'r esa yasama gulga o'xshab turadi. Yasama gulda chiroyli rang bo'lgani bilan unda o'ziga xos ifor bo'lmaydi. Tabiiy gul esa o'zgacha rang va ifor bilan kishini maftun etadi. Bu o'rinda uslubdagi sayozlik, so'z qo'llashdagi no'noqliklarga e'tibor qaratmoqchimiz. Bu jihatdan bizga O'zbekiston xalq shoiri Normurod Narziy hamda shoir Rustam Ochilning ijodi yetarli material beradi.

Normurod Narziy ijodi istiqlolgacha ham, undan keyin ham doim tanqidchilik markazida bo'ldi. Shoir ijodida ishqiy, ma'rifiy, ayniqsa, vatanparvarlik mavzusi alohida ajralib turadi. Bu jihatdan shoirning “Vatan tuyg'usi”, “Yurt ishqida yonaman”, “Vatan ichra”, “To'ylaring muborak, O'zbekistonim”, “O'zbekiston so'zlagay” va boshqa shu tipdagi she'rlari diqqatga molik. Ular xalqona uslubga juda yaqin yozilgani boisidan xalqqa, omma dunyoqarashiga juda yaqin. Ularning milliy qo'shiqchilik san'atidagi o'rni ham e'tirofqa loyiqdir, balki. Ammo biz badiiy asarga ohang, musiqa talabi bilan emas, balki badiiy ijodning azaliy qonun-qoidalari talablaridan kelib chiqib baho beramiz. Ya'ni, asar qaysi janrda bitilganidan qat'iy nazar, an'anaviy poetik me'zonlarga, qonuniyatlarga izchil va teran amal qilmog'i lozim. Bu o'rinda biz zinhor she'rda qofiya yoxud badiiy san'at bo'lishi lozim, demoqchi emasmiz. Ammo unda muayyan insoniy tuyg'u, dard yo kechinma bo'lishi shartligini ta'kilamoqchimiz, xolos. U o'quvchiga ma'lum bir haqiqatni uqtirish bilan birga unga estetik zavq bag'ishlashi ham lozim. Shu oddiy aksioma inobatga olinmas ekan, yozilgan har qanday jimjimador asar so'z san'ati xazinasidan munosib o'rin topolmaydi. Zotan she'r – san'at, shoir esa san'atkordir.

“TURKIY XALOLAR FOLKLORINING OIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

Shoir zoti so‘zni san‘at talablari asosida darj etolmasa, uning yozgani o‘zining yoki o‘zi kabi sodda odamlarning nihoyatda tor, biqiq fikrlash doirasidan chetga chiqolmaydi. Shunday ekan, asarni so‘z san‘ati olamida uzoq vaqt yashashi uchun shoir ma‘lum bir adabiy-estetik talab va mezonlarga qat‘iy amal qilishi lozim, degan fikrdamiz.

Normurod Narziy she‘riyati o‘tgan asr so‘nggi choragi tanqidchiligida sohaning so‘l qanotida rosa savalangan. Uning ijodidagi nuqonlar professor Ozod Sharafiddinov, Norboy Xudoyberganov, ayniqsa, tanqidchi Safo Ochil tomonidan ayovsiz fosh etilgan. Munaqqid shoirni taqlid, ko‘chirmakashlik va o‘z-o‘zini takrorlashda jiddiy ayblagan: ”Normurod Narziyning aksariyat she‘rlarini o‘qiganda qiziq bir ahvolga tushasiz. G‘alizligiga, ritorikaga moyilligiga, badiiy bo‘yoqdan mahrumligiga e‘tibor bermaslikka harakat qilsangiz-da, ularni qaerdadir o‘qigandek yo eshitandek bo‘laverasiz. Oxiri ma‘lum bo‘ladiki, shoir o‘z-o‘zini takrorlar ekan. Ba‘zi iboralar, obrazlar, tashbehtar she‘ridan she‘riga ko‘chib yurar ekan. Ba‘zi she‘rlari esa boshdan-oyoq biri ikkinchisini takrorlashdan iborat bo‘lar ekan...” [Ochil R. 5: 130].

Maqola davomida tanqidchi shoirni “so‘z o‘zlashtirish”, “ko‘chirmakashlik”da ham ayblaydiki, biz bu fikrni qo‘llab quvvatlay olmaymiz. She‘rning o‘zi zaif bo‘lsa, tag‘in ko‘chirmakashlikda ham ayblasak, masalaga xolis yondoshmagan bo‘lamiz. Demoqchimizki, shoir ko‘chirganda yaxshiroq asarni ko‘chirgan bo‘lur edi. Bu o‘rinda yoshligida ham sust yozardi, hozir ham shunday, deb baho berish, kifoya. Biroq yuqoridagi fikrlarning aksariyatini inkor qilib bo‘lmaydi. Bu gaplarni munaqqid Safo Ochil o‘tgan asrning 90-yillarida yozgan. Bular shoirning sobiq sho‘ro tuzumi davridagi ijodiga nisbatan aytilgan. Unda hech qanday fitna yo g‘arazgo‘ylikka yo‘l qo‘yilmagan. Normurod Narziyning yoshlik chog‘ida “she‘rga asos qilib olgan poetik obrazni mantiqan nihoyasiga yetkazolmasligi”, “til jihatdan oqsashi”, “ko‘pincha g‘ayritabiiy iboralar, noo‘rin jumlar tuzishi”ni ustoz tanqidchi Ozod Sharafiddinov ham o‘tgan asrning 80-yillarida alohida tanbeh shaklida uqtirgan [Sharafiddinova O. 6:97 va 6:142].

2000 yilda “Yangi asr avlodi” nashriyoti shoirning “Xalqim, sen bilan qalbim” nomli she‘rlar to‘plamini nashrdan chiqardi. To‘plam O‘zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripov yozgan kirish so‘z bilan ochiladi. Unda shoirning besh yuzdan ortiq she‘ri qo‘shiq bo‘lgani, ular respublikamizning taniqli xonandalari tomonidan sevib ijro etilgani aytiladi. Bizda savol tug‘ildi: o‘sha taniqli xonandalar jo‘shib kuylaydigan yaxshi qo‘shiqlar ichida yaxshi she‘r ham bormikin?! Bo‘lsa, ular

“TURKIY XALOLAR FOLKLORINING OIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

haqida qaysi munaqqid ijobiy fikr bildirgan?! Taassufki, shoirning ushbu to‘plamidan o‘rin olgan she‘rlarida ham o‘z-o‘zini sun‘iy yo‘sinda takrorlash, so‘zni oliy maqsad va g‘oyalarga safarbar etolmaslik, satrlar aro parokandalik, ifoda chuchmalligi, so‘zbozlik, qofiyabozlik va shu kabi illatlar ko‘zga tashlanadi. Shoirning bir she‘ri “O‘zbekiston deb beraman ovoz” deb nomlangan. She‘rning har bandi olti misrani tashkil etadi, jami o‘n band. Har bandning oxiri:

Asl insonni sevib, ardoqlab,

O‘zbekiston deb beraman ovoz [Narziy N. 3:16]

deydigan tantanovor iqrora bilan yakun topadi. Ammo ana shu iqrora tepasida keladigan satrlarning birortasida bo‘lsin oxirgi ikki satrga vobastalik ko‘rinmaydi. Shoir asl inson deganda birinchi prezidentni nazarda tutgan. Chunki she‘rda mustaqillikning dastlabki yillarida qisqa muddatda amalga oshirilgan iqtisodiy-siyosiy o‘zgarishlar, mustaqil vatanimizning jahon xaritasida tutgan o‘rni, ma‘naviy - ma‘rifiy jabhada, shuningdek ishlab chiqarish sohasida erishilayotgan yutuqlar va bunga bevosita yurtboshining rahnamolik faoliyati tufayli erishayotganimizni ifodalashga urinish bor. Ammo bu narsa muayyan poetik timsol va metaforalar qobig‘iga o‘ralmaydi. Shu boisdan o‘quvchi qalbini larzaga solmaydi, etini junjiktirmaydi. So‘z ham, fikr ham nihoyatda sayoz. Ehtirosdan umuman nishon yo‘q. She‘rda g‘ashga teguvchi ritorikadan boshqa narsa mavjud emas. Bu kabi holatlar, afsuski, boshqa sahifalarda ham tez-tez ko‘zga tashlanadi. “Mustaqillik qasidasi”dan parcha:

Dalamdagi chanog‘im o‘sha,

Paykaldagi boshog‘im o‘sha,

Falakdagi chaqmog‘im o‘sha,

Mustaqillik abadiy, mangu!

[Narziy N. 3:11]

Endi “Nigohimda yashar Vatan” she‘ridan parcha:

Paxtalar chanog‘ida,

Bug‘doylar boshog‘ida,

Ko‘zlarim qarog‘ida,

Vatanimni ko‘rurman,

Kuylab davron sururman

[Narziy N. 3:46]

Normurod Narziy, aftidan, “chanoq” bilan “boshog‘ni qofiya sifatida qo‘llash mustaqillikni madh etadi, deb o‘ylasa kerak. To‘g‘ri, xalqimiz yetishtiradigan xom-ashyolarning hammasi she‘r manbai bo‘lishi mumkin. Ammo u yuqoridagi kabi g‘aliz, ma‘lum bir tanish ohang va iborlarni takrorlash vositasida bo‘lmasligi lozim.

“TURKIY XALOLAR FOLKLORINING QIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

Badiiy asarda, xususan, she‘riyatda har bir so‘z alohida sehr kasb etishi kerak. She‘riyatda o‘ylamay ishlatilgan birgina so‘z san‘at hodisasining butun nafosatiga soya tashlaydi. Akademik Naim Karimov yozganidek, “She‘r o‘ziga xos organizm bo‘lsa, so‘z uning hujayrasidir. Organizm tirik bo‘lishi uchun uning har bir hujayrasi sog‘lom bo‘lishi va nafas olib turishi lozim bo‘lganidek har bir so‘z ham she‘rga, uning qalbi bo‘lgan obrazga o‘z qonini berib turishi va uni harakatga keltirishi kerak...Poetik tilning benihoya go‘zalligiga erishmoqchi bo‘lgan shoir istar-istamas shakl qurboni bo‘lib, she‘rda ifodalamoqchi bo‘lgan g‘oyaviy mundarijani butunlay buzadi...” [Karimov N. 2:72]. Shu jihatdan qarajak, Normurod Narziy she‘rlarida so‘z ko‘pincha jonli harakatda bo‘lmaydi. Shoir ijodida takrorning tabiiy ko‘rinishidan ko‘ra, sun‘iy shakli ko‘zga juda ko‘p tashlanadi. Natijada shoir aytmoqchi bo‘lgan fikr mavhumlashadi, badiiy jozibadorlik kasb etmaydi.

So‘zni yetarlicha his etmaslik, natijada uni yuksak g‘oyalarga safarbar qilolmaslik, shaklbozlikka ruju qo‘yib, mazmunni qurbon qilish holati, goho san‘atkorlik da‘vo qilib behayo, beparda so‘z yo so‘z birikmalarini she‘r bag‘riga qistirish illati shoir Rustam Ochil ijodida ham uchraydi. Rustam Ochil qirq yildan ortiq tajribali shoir bo‘lgani holda so‘zga mas‘uliyat hissini tamom yo‘qotib qo‘yadi. U she‘rning, xususan, g‘azal va to‘rtliklarning oddiy texnik qoidalariga amal qilish zaruratini unutadi. Natijada shoirning o‘zi kutgan poetik g‘oya yuzaga balqib chiqmaydi. Goho shoir shunaqa jo‘n, mayda, hatto, she‘r tiliga ko‘chirish mumkin bo‘lmagan uyat, beibo so‘zlarni yozib, kitobxonga taqdim etganini o‘ziyam sezmay qoladi. Eng yomoni shoir kitobni chop ettirishdan oldin birorta muharrirga tahrir qildirishni yo bo‘lmasa, o‘z asarini “o‘zga nigoh bilan o‘qib”, tahrir qilish malakasini bilmaydi. Quyidagi to‘rtlikda qofiya va radif yetarlicha ta‘minlanmagan:

Tomirimda qon emas, may oqsin mayli,
Ishqing olovidan jon yonsin mayli.
Ruhim osmonlarda parvoz qilsa, bas,

Borligim, yo‘qligim sening tufayli [Ochil R. 4:290]

E‘tibor bering: oqsin, yonsin qofiya o‘rnida kelgan. Oxirgi misrada esa bularga ohangdosh so‘zni ham, “mayli” degan radifni ham ko‘rmaymiz. “Oqsin mayli”, “yonsin mayli” bo‘lgach, oxirgi satr “tonsing mayli” yo “qonsing mayli” deyilganda, biz she‘rni to‘laqonli asar deyishimiz mumkin edi. Bu holatda uni yaxshi she‘r deb bo‘lmaydi. To‘rtlikda lirik qahramon ma‘shuqaga chin oshiqligini, sadoqatini namoyish etishga uringan. Biroq bu g‘oya badiiyat talablarini yetarlicha idrok etolmagani uchun chiroyli shaklga ega bo‘lmay qolgan. She‘rning oddiy texnik

“TURKIY XALOLAR FOLKLORINING QIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

qoidalariga amal qilinmagach, undan o‘ziga xos g‘oya yo poetika elementlarini izlashga zaruriyat bo‘lmay qoladi. Quyidagi to‘rtlikda ham shoir o‘ylagan asosiy muddao yuzaga chiqmay qolgan. Unda o‘qirmanga salbiy ta‘sir qiluvchi qo‘pol, beparda ma‘no zuhur etgan:

Oqni oq desam, qora dedilar,

Oh, sekin-asta qalbim yedilar.

Endi yuraksiz yashab yuribman,

Qaysi a‘zomni endi yeydilar? [Ochil R. 4:293]

“Qaysi a‘zomni endi yeydilar” – satri so‘roq ohangida aytilgan. Biz uni shoirona ifoda deb baholamaymiz. She‘ning bosh va asosiy alomati odob bo‘lishi lozim. Qalb – mavhum otga kiradi. Shunday ekan, uning raqib tomonidan yeyilishi ishonarli emas. Raqib lirik qahramonning qalbini yeb tugatibdi. Xo‘sh, endi qaysi a‘zosini yemoqchi? Bu juda xunuk va beibo tasvirdir. Biz buning uchun shoirga tasanno aytmaymiz. Aksincha, yoshi bir joyga borib qolgan odamning g‘animlarini bu kabi yerga urishi, haqorat qilishi adabiy-estetik tamoyillarga zid ekanini qayd etamiz. Rustam Ochilning “Umr o‘tib boradi”, “Go‘zal”, “Devonaman” “Muborak”, “Yaxshilik istayurman” va boshqa ba‘zi bir g‘azallarida qofiya va radiflar o‘z o‘rniga tushgan. Shu bois ularda ichki musiqiylik, ohang ham mavjud. Biroq “Shukrona ayt, o‘ynab tur shaxmat”, “Kutaman”, “Dedim”, “Mehru oqibat bo‘lsa” va boshqa shu kabi ayrim g‘azallarida qofiya va radif unsurlariga rioya qilinmaydi.

Rustam Ochilning sarlavhalarini ham juda topib qo‘yilgan deb aytolmaymiz. Avvalo, shuni aytish o‘rinliki, g‘azalga tema qo‘yish shart emas. Mabodo, shoir unga tema qo‘yishni xohlasa, radifni sarlavhaga chiqarishi lozim. An‘ana shunday. Rustam Ochilida uzun-uzun sarlavhalar bor. Hayron qolasiz, bir she‘r temasiga shuncha so‘zni sarf qilishning nima hojati bor? O‘qib ko‘raylik: “Na desang shu bo‘ldim qo‘ldan kelgancha”, “Tallimarjonda ishlab yurgan davrimda Beshkentga mehmon bo‘lgan kun”. Nahotki, she‘rga shuncha uzun tema qo‘yish shart deb hisoblash mumkin bo‘lsa? She‘r yaxshi chiqishi uchun sarlavha ixcham va ma‘nodor bo‘lishi kerak. Xulosa shuki, ”uslub bu - men” degan mashhur aqidada real haqiqat mujassamdir.

Adabiyotlar:

1. Мамажонов С. Сайланма. Адабий-танқидий мақолалар. –Тошкент: Ф.Фулом, 1981. – Б.207..
2. Каримов Н. Хамид Олимжоннинг поэтик маҳорати. Тошкент: Фан, 1964.
3. Нарзий Н. Халқим, сен билан қалбим. –Тошкент: Янги аср авлоди, 2000.
4. Очил Р. Сайланма. 3 томлик. 3-том. Тошкент: Мусиқа, 2018.
5. Очил С. Орзулар кўкидаги шафақлар. –Тошкент: Ўқитувчи, 1991.
6. Шарафиддинов О.Талант – халқ мулки. –Тошкент: Ёш гвардия, 1979.